

KONSTITUTSIYAVIY QONUNI LOYIHASI**Saparova Maftuna xxx***Urganch shahar yuridik texnikumi 2- kurs o'quvchisi**Tel 99 891-994-99-98**saparovamaftuna@mail.com*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada konstitutsiyaviy qonuni loyihasi, konstitutsiyada davlat tuzilishi, shuningdek qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi organlar va sud hokimiyati vakolati, saylov tizimi, fuqaroning huquqi, burchi va majburiyati, jamiyat va shaxs, davlat va fuqaro o'rtasidagi munosabatga doir eng muhim jihatlar qat'iy belgilab qo'yilganli haqida ma'lumot berilgan.*

Kalit so'zlar: *Konstitutsiya, Qomus, sub'ekti, Referendum, normativ-huquqiy, norma, hokimiyat.*

Аннотация: *В данной статье проект конституционного закона, устройство государства в конституции, а также полномочия законодательной, исполнительной и судебной власти, избирательная система, права, обязанности и обязанности гражданина, обсуждаются важнейшие аспекты взаимоотношений общества и личности, государства и гражданина, приводятся сведения, которые отмечены.*

Ключевые слова: *Конституция, Словарь, предмет, референдум, нормативно-правовой акт, норма, полномочия.*

Abstract: *In this article, the draft constitutional law, the structure of the state in the constitution, as well as the authority of the legislature, executive bodies and the judiciary, the electoral system, the right, duty and obligation of the citizen, the most important aspects of the relationship between society and the individual, the state and the citizen, are discussed. Information is given that it has been marked.*

Key words: *Constitution, Dictionary, subject, Referendum, normative-legal, norm, authority.*

KIRISH

Konstitutsiya lotincha "constitution" so'zidan olingan bo'lib, "tuzilish", "o'rnatish" ma'nolarini anglatadi. Qomus alohida yuridik xususiyatga ega yagona siyosiy-huquqiy hujjat sifatida shaxs, jamiyat va davlat o'rtasidagi munosabatning asosiy tamoyilini o'rnatadi, davlat hokimiyatining tuzilishi, sub'ektini, hokimiyatni amalga oshirish mexanizmini belgilaydi, jamiyat, inson, fuqarolarning davlat tomonidan qo'riqlanadigan huquqi va erkinligini mustahkamlaydi.

Konstitutsiyaning mamlakat hayotidagi ahamiyatiga to'xtalar ekanmiz, avvalo, qomusimiz mohiyatini anglab yetish zarur. Har bir mamlakat huquq tizimida muhim ahamiyatga ega mazkur asosiy qonun oliy yuridik kuchga ega normativ-huquqiy hujjat hisoblanadi. Muayyan davlatdagi xech bir qonun hujjati me'vori Qomusda qayd etilgan normaga zid kelishi mumkin emas. Konstitutsiyada davlat tuzilishi, shuningdek qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi organlar va sud hokimiyati vakolati, saylov tizimi, fuqaroning huquqi, burchi va majburiyati, jamiyat va shaxs, davlat va fuqaro o'rtasidagi munosabatga doir eng muhim jihatlar qat'iy belgilab qo'yiladi.

ADABIYOTLAR VA METADOLOGIYA

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi negizida ishlab chiqilgan Harakatlar strategiyasi o'tgan qisqa muddatda davlat va jamiyatni rivojlantirishning mutlaqo yangi bosqichiga asos soldi. Hozir Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida keng ko'lamli, ulkan islohotlar olib borilyapti. Ushbu strategiyani amalga oshirishda Bosh Qomusimiz beqiyos ahamiyat kasb etadi. Sababi, Yangi O'zbekiston strategiyasining barcha yetti yo'nalishining amaliyotga joriy etilishi qomusimiz bilan chambarchas bog'liq. Xususan, strategiyaning ikkinchi yo'nalishi adolat va qonun ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, ushbu jihat xalqchil davlat qurish, inson qadr-qimmatini ta'minlashning asosiy va zarur sharti sifatida aytib o'tilgan.

Prezidentimiz Konstitutsiyani qayta ishlab chiqishda bevosita xalq takliflarini e'tiborga olish, qonun loyihasini referendumga qo'yish orqali qabul qilish zarurligini bildirgan edi.

Referendum – O'zbekiston Respublikasi qonunlari va boshqa qarorlarni qabul qilish maqsadida jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari yuzasidan fuqarolarning umumxalq ovoz berishidir. Referendumning saylovdan asosiy farqi shundaki, Referendum o'tkazilayotganda biror lavozimga nomzod yoki nomzodlar ro'yxati uchun ovoz berilmaydi, balki muayyan masala – qonun, qonun loyihasi, konstitutsiya, konstitutsiyaga tuzatish kiritishga oid savol qo'yiladi.

Referendumda qabul qilingan qaror oliy yuridik kuchga ega bo'ladi va faqat referendum yo'li bilan bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi mumkin.

NATIJALAR

Aytish joiz, Konstitutsiya loyihasini tayyorlashda xalqimizning fikri, takliflari ikki bosqichda o'rganildi. Birinchi bosqichda fuqarolarimizdan Konstitutsiya loyihasini shakllantirishga qaratilgan 60 mingdan ziyod taklif tushdi. Ikkinchi bosqichda Konstitutsiya loyihasi umumxalq muhokamasiga

qo'yildi. 5 millionga yaqin aholi ommaviy axborot vositalari, internet tarmog'i orqali loyiha bilan tanishdi, 150 mingdan ziyod taklif va mulohaza aytili.

Ayni paytda xalqaro-huquqiy hujjatlar, 190 dan ortiq davlat tajribasi o'rganildi, loyiha 6 xil ekspertizadan o'tkazildi.

Yangi tahrirga asosan, O'zbekiston Konstitutsiyasidagi moddalar soni avvalgi 128 tadan 155 taga, normalar esa 275 tadan 434 taga oshyapti. 128 moddaning 91 tasiga konseptual o'zgarish kiritilmoqda. Umuman, konstitutsiya 65 foiz o'zgartirilyapti.

Konstitutsiyaviy Qonun referendum yakunlari O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Konstitutsiyaviy Qonun kuchga kirguniga qadar O'zbekiston Respublikasi hududida amalda bo'lgan qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar ushbu Konstitutsiyaviy Qonun tahriridagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga zid bo'lmagan qismida qo'llanadi.

Konstitutsiyaviy Qonun tahriridagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi normalari tegishli qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinishidan yoki mavjudligidan qat'i nazar, Konstitutsiyaviy Qonun kuchga kirgan paytdan e'tiboran to'g'ridan to'g'ri amal qiladi.

Qonun loyihasi 6 bo'lim, 155 moddadan iborat. Konstitutsiyaviy qonun referendum yakunlari Markaziy saylov komissiyasi tomonidan rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

1-modda quyidagi tahrirda bayon etilsin: «1-modda. O'zbekiston – suveren respublika, huquqiy, ijtimoiy, dunyoviy, demokratik davlat. Davlatning «O'zbekiston Respublikasi» va «O'zbekiston» degan nomlari bir ma'noni anglatadi»;

13 va 14-moddalar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

«13-modda. O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga muvofiq inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Insonning sha'ni va qadr-qimmatini, huquq va erkinliklarini hurmat qilish, ularga rioya etish, ularni himoya qilish davlatning majburiyatidir. Insonning huquq va erkinliklari bevosita amal qiladi, qonunlarning ma'nosini, mazmunini va qo'llanilishini, davlat organlarining, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining va ular mansabdor shaxslarining faoliyatini belgilaydi. Insonga nisbatan huquqiy ta'sir chorasi davlat organi tomonidan ko'zlanadigan qonuniy maqsadga erishish uchun yetarli bo'lishi hamda manfaatdor shaxslarga imkon qadar qiyinchilik tug'dirmasligi kerak. Insonning davlat organlari bilan o'zaro munosabatlarida qonunchilikda yuzaga keladigan, bartaraf etib bo'lmaydigan

barcha qarama-qarshiliklar va noaniqliklar inson foydasiga talqin qilinadi. Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi.

14-modda. Davlat o'z faoliyatini inson farovonligini hamda jamiyatning barqaror rivojlanishini ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshiradi»;

XULOSA

Xulosa o'rnida Prezidentimizning Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan uchrashuvidagi nutqidan iqtibos keltirmoqchiman: "Konstitutsiyaviy islohotni fuqarolarimiz fikri va qo'llab-quvvatlashi asosida referendum orqali amalga oshirsak, bu tom ma'noda xalqimiz xohish-irodasining ifodasi – haqiqiy xalq Konstitutsiyasi bo'ladi. Shunda har bir vatandoshimiz "Yangi O'zbekiston Konstitutsiyasi – mening Konstitutsiyam" deb yuksak g'urur bilan ayta oladi".

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. «Narodnoye slovo» va «Xalq so'zi» gazetalari
2. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/06/25/doc/>
3. „Шавкат Мирзиёев заявил о необходимости конституционных реформ“. Qaraldi: 3-iyun 2022-yil.
4. ↑ „КОНСТИТУЦИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН“. Qaraldi: 3-iyun 2022-yil.
5. ↑ „Президент: Статьи 70–75 Конституции менять не будут“. Qaraldi: 4-iyul 2022-yil.
6. ↑ „Конституция не будет меняться без обсуждения с народом — Танзила Нарбаева“. Qaraldi: 3-iyun 2022-yil.
7. ↑ „ИНФОРМАЦИЯ о заседании Кенгаша Сената Олий Мажлиса Республики Узбекистан“. 18-may 2022-yilda asl nusxadan arxivlandi. Qaraldi: 3-iyun 2022-yil.
8. ↑ „Сенат одобрил поправки в Конституцию“. Qaraldi: 3-iyun 2022-yil.
9. ↑ „Выборы президента состоятся в октябре“. Qaraldi: 3-iyun 2022-yil.
10. ↑ „Современный конституционализм: национальный и зарубежный опыт“. Qaraldi: 3-iyun 2022-yil.